

09_6071/2940 - SON
TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RISIDA
ABONENT ShARTNOMASI

Yuridik shaxslar (shu jumladan, byudjet tashkilotlari, yakka taribdagi tadbirkor va qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmasdan faoliyat yurituvchi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari) uchun

Xonqa tuman.

2022yil "28" yanvar

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rirlarda matnda – Kompaniya deb yuritiladi) nomidan 05.01.2022 yildagi 27-01-14/33-sod ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning filiali direktori Samandarov A.S, bunday buyon "Operator" deb nomlanuvchi, bir tomon dan va: Xonqa tumani tibbiyot birlashmasi nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi K.R.Tangriberdiyev, bunday buyon "Abonent" deb nomlanuvchi, ikkinchi tomon dan, birkalikda "Tomonlar" deb yuritiladi, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Abonent shartnomasini (keyingi o'rirlarda matnda – Shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1. Abonent ushbu Shartnomani imzolab:

- Operatorning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-, 369-moddalariga muvofiq "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo'lgan Ommaviy ofertasiga (keyingi o'rirlarda – Oferta) shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatilishi to'g'risida shartnoma tuzadi;

- Operator tomonidan ko'rsatiladigan mobil aloqa xizmatlari uchun Abonent Dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

1.1. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda ushbu Shartnomani imzolaganidan so'ng, Operator Abonentga identifikasiya raqamini beradi. Identifikasiya raqami berilganidan so'ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati doirasida o'z tanlovidan kelib chiqib, Dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi mumkin.

1.2. Xizmat ko'rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi mayjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. Operator ushbu Shartnomani imzolagan vaqtidan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.2. Abonent ushbu Shartnomani imzolagan vaqtidan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma amal qilish davrida, o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishda umume'tirof etilgan madaniyatga amal qilingan holda, o'z huquq va majburiyatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ni amalga oshiradilar.

3. Hisob-kitob va to'lovlar tartibi

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Ofertaning 6-moddasiga muvofiq, mobil aloqa xizmati uchun ushbu Shartnoma asosida Xizmatlar ko'rsatilishidan oldin to'lovni amalga oshirish (Prepaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi va oylik hisob **100 (yuz) foiz** miqdorida oldindan to'lanadi.

3.2. Tariflar Abonent bilan Shartnoma tuzilganda va Operator Xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtida belgilangan barcha soliqlar va yig'implarni o'z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to'ovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab **3 (uch) bank kuni** mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ularishda Abonent to'ovi **100 (yuz) foiz** miqdorida oldindan to'lanadi. Dastlabki avans to'ovi oldindan to'lov bo'yicha talabnomaga (hisob) asosida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. **Byudjet tashkiloti bo'lgan Abonent uchun** Shartnomaning umumiyligi summasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Shartnomaning umumiyligi summasi (QQSni hisobga olgan holda) 30320000 (O'ttiz million uch yuz yigirma ming) so'mni tashkil etadi. Ushbu summa 30320000 (O'ttiz million uch yuz yigirma ming) so'm miqdorida Abonent to'lovini hamda 3790000 (Uch million yetti yuz to'qson ming) miqdorida bir martalik to'lovni o'z ichiga oladi.

3.4.1. Mazkur Shartnomaning umumiyligi summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa Tomonlar o'rtasida imzolangan qo'shimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

3.5. Abonent keyingi hisob-kitob davri (hisobot oy) boshlangunga qadar oldindan to'lovning 100 (yuz) foiz sharti bilan har oyda Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshiradi. Ushbu to'lov Shartnomaning 8-moddasida ko'rsatilgan Operatorning shaxsiy hisob raqamlariga pul mablag'larini ko'rsatilgan Xizmatlar hisobiga olgan holda, tanlangan hajm va tariflar/tarif rejalariga muvofiq o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.6. Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'limasa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatadi.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan Xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu Xizmatlar uchun to'lovlarini amalga oshirmsligiga asos bo'la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator Xizmatlaridan foydalanishni vaqtinchalik to'xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalender oy) uchun istalmagan to'lovlarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Operatordan bonuslar ko'rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag'lar faqat Operator Xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonent pul shaklida to'lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan Xizmatlar, Shartnomaga muvofiq Xizmat uchun alohida rasmiy lashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan Xizmatlarning to'liq kalender oy uchun umumiyligi miqdori ko'rsatiladi.

3.9.1. Agar Abonent **10 (o'n) ish kuni** mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura bo'yicha o'z e'tirozlarini yozma yoki elektron shaklida taqdim etmasa, ushbu Xizmat turi bo'yicha hisob-faktura qabul qilingan va Xizmatlar tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning e'tirozlarini asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalender oyida taqdim etiladigan Xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

3.10. Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamining balansi salbiy bo‘lganida **1 (bir) kalendar oydan** oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga Xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

4. Tomonlar javobgarligi

4.1. Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu Shartnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo‘ladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno).

5. Nizolarni hal qilish tartibi

5.1. Tomonlarning ushbu Shartnomani bajarish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasasi talablar asosida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda nizolarni sudgacha hal etish tartibiga rioya qilingan holda o‘zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

5.2. Tomonlar o‘rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o‘zaro kelishuv orqali hal etishning imkonini bo‘lmagan taqdirda, nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko‘rib chiqiladi.

6. Alovida shartlar

6.1. Tomonlar mazkur Shartnomaning amal qilish davrida o‘z huquqlari va majburiyatlari bilan bog‘liq ravishda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiya qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalarini buzishi mumkin bo‘lgan har qanday choralar ko‘rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat’iy e’tirof etgan holda, o‘zaro hamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta’minalash va korrupsiya holatlariga murosasiz kurashish choralarini ko‘radi.

6.2. Mazkur Shartnomaning amal qilish davrida Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan har qanday holatlarda va hodisalarda (engib bo‘lmaydigan kuchlar/fors-major holatlari) Ofertaning 10-moddasasi qoidalariiga amal qilinadi.

6.3. Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e’tiroznama/shikoyat/taklif ko‘rinishidagi murojaati ko‘pi bilan 30 (o‘ttiz) kun davomida ko‘rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko‘rib chiqish uchun 15 (o‘n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat mualifsi) Operator tomonidan bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Ushbu Shartnomaning barcha muhim shartlari Ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.

7.2. Ushbu Shartnoma Tomonlar o‘rtasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi. Agar, Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so‘ng, Tomonlar (byudjet tashkiloti bo‘lgan Abonentga taqbiq etilmaydi) o‘z shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e’lon qilmagan bo‘lsa, Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

7.2.1. **Byudjet tashkiloti bo‘lgan Abonent** uchun ushbu Shartnoma vakolatli davlat organlarida ro‘yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.

7.2.2. Abonent tomonidan ushbu Shartnomaning imzolanishi - Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini qabul qilganligi haqidagi javobini) bildiradi.

7.3. Ushbu Shartnoma, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e’lon qilingan Oferta, ilova va qo‘srimchalar (agar mavjud bo‘lsa) Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o‘rtasida to‘liq Shartnomani tashkil etadi.

7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta’sis hujjatlari (mulkdorlari) o‘zgargan taqdirda, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklining o‘zgarishi va boshqa o‘zgarishlar ro‘y bergan taqdirda, Shartnoma o‘z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o‘zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, **10 (o‘n) kalendar kun** ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.5. Ushbu Shartnomaga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo‘lsa) va ushbu harakatlar Tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan hamda Tomonlarning muhurlari (mavjud bo‘lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo‘lsa, haqiqiy hisoblanadi.

7.6. Ushbu Shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan (har bir Tomon uchun bitta nusxadan beriladi).

8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

Operator:

Abonent:

“Xorazm” filiali “Uzbektelekom” AK
Manzil: 100015, Toshkent shaxri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shox kuchasi, 8 uy
STIR: 203366731MFO: MFO 00401
.X/r: 20210000904074838372
“Aloqabank” ATB

Samandarov A.S.



Mijoz: Xonqa tumani tibbiyot birlashmasi
Manzil: Xorazm viloyati, Xonqa tumani, Nurli O 3
sh/h/r: 401422860332237073101054001
MFO: 00014, INN: 201122919
INN: 200429599
Moliya Vazirligi G‘aznachiligi
h/r. 23402000300100001010
Markaziy bank Tosh sh XKKM



K.R. Tangriberdiyev